ADABIYOTSHUNOSLIK

UDK: 81'373.231 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss2/a81**

ALISHER NAVOIYNING “LISON UT-TAYR” DOSTONIDA BADIIY TASVIRIY VOSITALARNING QO‘LLANILISHI

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННО-ИЗОБРАЗИТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ В ЭПОПЕЕ АЛИШЕРА НАВОИ «ЛИСОН УТ-ТАИР»

THE USE OF ARTISTIC VISUAL TOOLS IN ALISHER NAVOI'S EPIC "LISON UT-TAIR".

To‘raxonova Xosiyat Mahamadolimovna[1]

[1]To‘raxonova Xosiyat Mahamadolimovna – Namangan muhandislik texnologiya instituti “Chet tillar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada badiiy tasviriy vositalar va ularning nazariy asoslari haqida bayon etilgan bo‘lib, ularni buyuk shoir Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida qo‘llanilish ko‘lami va badiiy tasviriy vositalarning turlaridan biri bo‘lmish metafora uchun keltirilgan namunalarga sharhlar berilgan. Tadqiqotning maqsadi badiiy tasviriy vositalarning “Lison ut tayr” dostonida qo‘llanilish ko‘lamini tadqiq etish. Tadqiqot metodi tahlil metodi bo‘lib, dostonning nasriy bayonidagi tasviriy vositalarni aniqlab, ularni turlarga ajratildi:metafora, metonimiya, mubolag‘a. tadqiqot natijasi badiiy tasviriy vositalar ajratib olinib ularni tahlil qilindi. Ko‘chimlar turlari aniqlanib, ishlatilishi, sinonimik hodisasi, omonimik hodisalar aniqlandi. Tasviriy vositalar nazariy jihatdan o‘rganilib, asardagi namunalar ilmiy jihatdan tadqiq etildi.

Аннотация

В данной статье описывается художественный образный язык и его теоретическая основа, он используется в эпосе великого поэта Алишера Навои “Лисон ут-Таир” (Язык птиц) и образцы для метафоры, являющейся одним из видов прокомментированы художественные изобразительные средства. Цель исследования - исследовать сферу использования художественно-изобразительных средств в эпосе “Лисон ут таир”. Метод исследования - метод анализа, выявляющий описательные средства в прозаическом повествовании эпоса и разделяющий их на виды: метафора, метонимия, преувеличение. В результате исследования были извлечены и проанализированы фигуры языка. Выявлены виды тропов, определено их употребление, синонимия и омонимичные явления. Наглядные средства были теоретически изучены, а образцы в работе научно исследованы.

Abstract

This article describes the artistic figurative language and its theoretical basis, it is used in the epic of the great poet Alisher Navoi “Lison ut-Tair” (The Language of The Birds) and samples for the metaphor, which is one of the types of artistic figurative tools are commented on. The purpose of the study is to investigate the scope of use of artistic visual tools in the epic “Lison ut tair”. The method of research is the method of analysis, identifying the descriptive tools in the prose narrative of the epic and dividing them into types: metaphor, metonymy, exaggeration. As a result of the research, figures of the language were extracted and analyzed. The types of tropes were identified, their use, synonymy and homonymous phenomena were determined. Visual means were theoretically studied, and samples in the work were scientifically researched.

Kalit so‘zlar: *badiiy tasvir vositalar, “Lison ut-tayr”, obraz, metafora, metonimiya, mubolag‘a, badiiy asar, kitobxon, personaj*

Ключевые слова: *средства художественного образа, “Лисон ут-таир”, образ, метафора, метонимия, преувеличение, художественная литература, читатель, характер.*

Key words: *artistic image tools, "Lison ut-tair", image, metaphor, metonymy, exaggeration, fictional story, reader, character.*

KIRISH

Badiiy tasviriy vositalar tilshunoslikning eng ko‘p tadqiq etilgan va mulohazalarga boy bo‘lgan mavzularidan biri ekanligi bizga ma’lum. Shunday ekan, badiiy tasviriy vositalarsiz badiiy adabiyot namunalarini tasavvur qilish albatta qiyin bo‘ladi. Chunki badiiy asarning o‘quvchi qalbidan joy olishida va uzoq vaqt xotirasida saqlanishida tasviriy vositalar muhim rol o‘ynaydi. Badiiy tasvir vositalari badiiy tilning belgilovchi xususiyatini ifodalagan obrazlilik(tasviriylik) va emotsionallikni kuchaytiruvchi omillardan biri hisoblanadi. Bitta predmetni xususiyatini bildiruvchi belgi boshqa biror predmetga ko‘chishida o‘xshashlik ya’ni so‘zning nominativ ma’nosiga daxl qilmagan holda, ko‘chma ma’noda ishlatilishi, oddiy, hech qanday leksik-stilistik bo‘yoqdorliksiz bayon qilishdan ko‘ra ancha kuchli ta’sir doirasiga ega bo‘ladi. So‘zlarni asliyatdagi ma’nosini emas, balki obrazlilik imkoniyatidan mohirona foydalanish badiiy-estetik maqsadni yuzaga keltiradi.

ADABIYOTSHUNOSLIK

ADABIYOTLAR TAHLILI

Badiiy tasviriy vositalar bo‘yicha ko‘plab tilshunos va adabiyotshunos olimlar o‘zlarining ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar: B.To‘xliyev, R.Qo‘ng‘urov, A.Yu.Boboniyozov, E.Qilichev, Sh.Rahmatullayev, M.Mirtojiyev, N.Arutyunova, M.Blek, J.Lakoff, E.Kassirer, Ye.Gogonenkova va boshqa ko‘plab olimlarning ilmiy ishlarida tasviriy vositalarning falsafiy-nazariy asoslari, mantiqiy tahlili, lisoniy, semantik hamda kognitiv xususiyatlarini ochib berilganligini ko‘rishimiz mumkin. Ammo, Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida qo‘llanilgan tasviriy vositalarning ingliz tilidagi tarjimalari muammosi hamon tadqiq etilgani yo‘q.

Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” (Qush tili) dostoni to‘liqligicha ramziy timsollar, majozning turli shakllari orqali tasvirlarga boy hikoyatlar aks etgan asar bo‘lib, bu haqda adib “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida “Chun “Lison ut-tayr” ilhomi bila tarannum tuzupmen, qush tili ishorati bila haqiqat asrorini majoz suratida ko‘rguzupmen” deb ta’kidlagan. Shuningdek, “Lison ut-tayr”da badiiy tasviriy vositalarning ifodalanishi asarni keng kitobxon ommasiga manzur bo‘lishida samarali usul bo‘la olgan, chunki bu asardagi obrazlar – majoziy timsollar bo‘lib, uning katta va kichik yoshdagi kitobxonni birdek o‘ziga rom etadi. Katta yoshdagi kitobxon qushlar majoziy ma’noda qo‘llanilib, aslida ular orqali insonlar nazarda tutilganligini, nafs quliga aylanmaslik, o‘zlikni anglash kabi komillikka chaqiriqni tushunib yetsa, kichik kitobxon uchun parrandalar obrazi orqali maqtanchoqlik, dangasalik kabi bir qator illatlardan qaytish kabi ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy ahamiyat kasb etgan da’vatdan ta’sirlanadi. Bunda tasviriy vositalar o‘quvchi va asar o‘rtasida ma’naviy aloqani paydo qilishga xizmat qiladi. “Lison ut-tayr” dostoni bo‘yicha E.Bertels, Ibrohim Haqqul, Sh.Sharipov, Z.Mamadaliyeva, R.Jumayev va boshqa olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bizning tadqiqotimizning ushbu tadqiqotlardan farqli jihati, “Lison ut-tayr” dostonida foydalanilgan badiiy tasviriy vositalarning ingliz tiliga tarjimasi muammolarini tadqiq etishga qaratilgan bo‘lib, badiiy tasviriy vositalarning metafora, metonimiya va mubolag‘a kabi turlarining qo‘llanilish ko‘lami, qahramonlar tasviri va nutqida qanday aks ettirilganligi kabi jihatlar tadqiq etilgan.

Ma’lumki, Alisher Navoiy asarlari tilining leksik-semantik, pragmatik, lingvokulturologik xususiyatlari muayyan darajada tadqiq etilgan. Buyuk alloma shoirning serqirra ijodini o‘rganish o‘sha davr hayotini o‘rganishga, bizga ma’lum bo‘lmagan jihatlarni ochilishiga imkon beradi. Shu o‘rinda “Navoiyshunoslik” fanining asoschilaridan biri Shuhrat Sirojiddinovning Navoiy jodini o‘rganish borasidagi fikrlarini keltirish o‘rinlidir: **“**...Yoshlar ma’naviy dunyosining milliylik va insonparvarlik zaminida shakllanishiga g‘oyat kuchli ta’sir ko‘rsatadigan, ayni paytda o‘zbek mumtoz adabiyoti va o‘zbek milliy ma’naviyatining shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini anglash yo‘lida ochqich — kalit vazifasini bajaradigan Navoiy ijodini o‘rganish orqali yoshlarda sog‘lom tafakkur tarzini shakllantirish, o‘zbek adabiyoti tarixining eng muhim davri haqida har tomonlama bilim hosil qilish, ma’naviy dunyosi mukammal bo‘lishiga ko‘maklashish muhim masalalardan hisoblanadi”. Darhaqiqat, Alisher Navoiy hayotining so‘nggi yillarida yaratgan asarlaridan biri bo‘lmish “Lison ut-tayr” dostonining leksik-semantik va badiiy-stilistik jihatini tadqiq qilishni maqsad qilib qo‘ydik. Ushbu asarda qahramonlar, joylar, tabiat manzaralari tasviri va berilgan hikoyatlar tavsifini badiiy ifoda etishda badiiy tasviriy vositalarning barcha shakllari mohirona qo‘llangan. Dostonning nasriy bayoni matnida uchraydigan tasvir vositalarini statistik tahlil qilganimizda 500 dan ortiq ekanligini aniqladik, aksariyat hollarda metafora, o‘xshatish, personifikatsiya qilish, mubolag‘alar qo‘llanilganligiga guvoh bo‘ldik. Ma’lumki, troplar matnda ma’noni kuchli darajada ifodalab, badiiy asarning badiiy salohiyatini ko‘tarishga xizmat qilishi bizga ma’lum. Biz dostonning leksik-semantik jihatdan tadqiq etishda, troplar ya’ni ko‘chimlarning metafora, metonimiya va mubolag‘a shakllarini tanlab olib, ularni asarda qay darajada ifoda etilganligi va tarjimalarda qayta tiklanishiga e’tiborimizni qaratdik.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Tilshunosligimizda ko‘chma ma’noda qo‘llaniladigan so‘zlar ko‘chimlar, g‘arb tilshunosligida esa troplar deb yuritiladi va ular badiiy matn yaratilishining asosini tashkil etadi. Metafora ko‘hna davrlardan to hozirgi kungacha sharq va g‘arb tilshunosligi hamda adabiyotshunosligida o‘rganilib kelingan badiiy tasviriy vositalardan biridir. Ko‘chimlarning boshqa shakllari metafora asosida yuzaga kelganligi hamda metaforaning asosan ikki turi farqlash lozimligi: lingvistik metafora va xususiy-muallif metaforalari mavjudligi fanda asoslangan. Bu ikki turdan biri lingvistik metafora

asosan atash, nomlash vazifasini bajarib, hech qanday badiiy bo‘yoqdorlik yoki emotsional ekspressivlikni ta’min etishini dostonda voqealar rivojida ko‘rishimiz mumkin: “*Bunday shoh topilmasligidan ularning barchasi noumid bo‘ldilar. Bu hodisa ular qalbida* ***og‘ir iz*** *qoldirdi.”,* (“Lison ut-tayr” nasriy bayoni 2008; 9). Bu misolda keltirilgan “*og‘ir iz*” so‘zi metafora bo‘lib, kundalik hayotda tez-tez foydalaniladigan ko‘chimdir. “*Og‘ir*” asliy ma’noda “vazni katta bo‘lgan, tosh bosadigan, vaznli” degan ma’nolarni anglatadi. “*Iz*” leksik birligi esa semantik jihatdan “biror narsa sathida(yuzasida) boshqa narsaning tegishi, bosilishi natijasida undan qolgan, uni bildiruvchi aksi” bo‘lib bu keltirilgan misolda ham asliy ma’nosini ramziy ma’noda qo‘llanilgani tahlilimiz natijasida ma’lum bo‘ldi. Demak biror narsaning yuzasiga boshqa bir narsaning qattiqroq botirilishi og‘ir iz qolishini ta’minlaydigan bo‘lsa, ushbu holatni biror voqea-hodisani xotirada qolishi, yoki kayfiyatga ta’sir qilib, qalbdan joy olishiga o‘xshatish mumkin. Keltirilgan misolda “*og‘ir*” so‘zining ko‘chma ma’nolaridan biri: qattiq tegadigan, xafa qiladigan, ko‘ngilsiz degan ma’noni ifodalab, “… *garchand har qancha urinmasin, ularning shohidek odilona podshoh topilmasligi ularning qalbida xafa qiladigan voqea* ” sifatida qo‘llanilgan. “*Bu hodisa ularning qalbida ko‘ngilsiz voqea sifatida qoldi*” deb asliy ma’noda ifodalamasdan, badiiy-stilistik bo‘yoqdorlikni ta’minlash maqsadida “*og‘ir iz*” so‘z birikmasini ma’no ko‘chirish orqali ifoda etilishi matnning strukturaviy jihatdan sodda va lo‘nda bo‘lishiga xizmat qilgan. Ushbu so‘z birikmasini ko‘chma ma’noda umumxalq leksikonida uchratishimiz mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, obrazli tildan foydalanish har bir badiiy asarga badiiy qiymatini oshiradi. Badiiy tasvir vositalari ustida olib borilgan barcha tadqiqotlar tildagi rivojlanishlarning tahlili bo‘lib, badiiy matnni lisoniy tahlil qilishimizda katta muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Alisher Navoiyning so‘nggi asarlaridan biri “Lison ut-tayr” (“Qushlar tili”) bo‘lib, u to‘liq majoziy tildan iborat: metafora, metonimiya, giperbola, shaxslashtirish, o‘xshatish kabilardan iborat. Ushbu badiiy tasviriy vositalar asarni kitobxon qalbi va xotirasida qolishiga katta xizmat ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Boboniyozov A.A.Qodiriyning O‘tkan kunlar romanida tasviriy vositalar.-Toshkent,1995. – bet 122. (Boboniyozov A.A.”Figures of the language in the work of A.Kodiri “the Days Passed by” Tashkent,1995. – Pages 122)

2. Mirtojiyev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. – Mumtoz so‘z, Toshkent, 2010. – bet 288.(Mirtojiyev M. Semasiology of Uzbek language. – Mumtoz suz, Tashkent, 2010. – Pages 288)

3. Black M. Metafora//Teoriya metafori. – M.:Progress,1990. - Bet 512. (Black M. Methaphor//Theory of Methaphors. – M.:Progress,1990. - Pages 512)

4. Lakoff, G. & M. Johnson (1980). Metaphors We Live By. Chicago, The University of Chicago Press. – Pages 242.

5. I.Haqqul. “Navoiyga qaytish” – T., Fan, 2007. – bet 33. (I.Hakkul. “Back to Navoi” – T., Fan, 2007. – Pages 33)

6. Yo‘ldoshev M., Isaqov Z., Haydarov Sh.: Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent, 2010. – Bet 165.(Yuldoshev M., Isakov Z., Haydarov Sh.: Linguistic analysis of literary text . – Toshkent, 2010. – Bet 165)

7. Yunusova Nilufar Maxmudjanovna, & Axunbabayeva Nargiza Xamidjanovna. (2021). TRANSLATION AS A BALANCE OF ART AND SCIENCE. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 2(5), 121-126. https://doi.org/10.47494/cajlpc.v2i5.138

8. Ahunbabaeva Nargiza Hamidjanovna, Yunusova Nilufar Mahmudjanovna. (2022). HISTORICAL DEVELOPMENT OF UZBEK MILITARY TERMINOLOGY. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 3595–3597. https://doi.org/10.47750/pnr.2022.13.S06.478 (Original work published December 29, 2022)

9. Sobitaliyevna, M. B., & Abdimajitovna, I. R. (2021). Activities for organizing communicative language teaching . Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 2(5), 30-32. Retrieved from https://cajlpc.centralasianstudies.org/index. php/CAJLPC/article/view/116

10. Turahanova, H. . (2021). The Poetics of "Lison Ut-Tayr". Middle European Scientific Bulletin, 19, 319-321. https://doi.org/10.47494/mesb.2021.19.989

11. Abdullayeva Sh. (2021) The Importance of Culture in Second and Foreign Language Learning. Modern Scientific Challenges and Trends.78-82.

12. Yuldasheva D.M. Pedagogisal Features Of Mental Development Of Presshool Shildren. Solid State Teshnalogy.Volume: 63 Issue:6 Publisation Year:2020. 14221-14225

13. Yuldasheva D.M.Anthropotsentris Approash To Shildren`S Speesh Study. Sestion 2: Linguistiss Theory,Applied Linguistiss. Sollestion Of Materials Of The International Online Sonferense.Www.Researsh-Support-Senter.Som 2020.92-95

14. Yuldasheva D.M. The Methods Of Speesh Development Of Presshool Shildren. Epra Internashinal Jurnal Of Multidissiplinary Researsh(Ijmr). Impast Fastor: 7.6.11.November.